



## O'ZBEKİSTONDA İCHKİ TURİZMNI RİVOJLANTIRISH: İMKONİYATLAR, MUAMMOLAR VA İSTIQBOLLAR

**Axmedjanova Irada Usmanovna**

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

ORCID: 0009-0002-2745-7812

[irada1520@gmail.com](mailto:irada1520@gmail.com)

**Xalilova Nodira Abduxamid qizi**

Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti

ORCID: 0009-0008-9522-6577

[nodiraxalilova0807@gmail.com](mailto:nodiraxalilova0807@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Ichki turizm mamlakatning iqtisodiy o'sishi, aholi tur mush darajasini yaxshilash, madaniy merosni asrash va targ'ib qilishda muhim vosita sifatida qaraladi. Maqolada ichki turizmning hozirgi holati, uning qishloq turizmi, tarixiy shaharlarga sayohat va tabiiy dam olish maskanlari kabi yo'naliishlardagi imkoniyatlari atroflicha o'r ganiladi.

**Kalit so'zlar:** ichki turizm, muvaffaqiyatli strategiyalar, Incredible India, Tursab, muammolar, sezilarli o'sish, qaror va farmonlar.

## РАЗВИТИЕ ВНУТРЕННЕГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ: ВОЗМОЖНОСТИ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

**Ахмеджанова Ирада Усмановна**

Научно-исследовательский институт развития туризма

**Халилова Надира Абдухамид кизи**

Научно-исследовательский институт развития туризма

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы развития внутреннего туризма в Республике Узбекистан. Внутренний туризм рассматривается как важный инструмент экономического роста страны, повышения уровня жизни населения, сохранения и популяризации культурного наследия. В статье изучается текущее состояние внутреннего туризма, а также его возможности в таких направлениях, как сельский туризм, поездки в исторические города и зоны природного отдыха.

**Ключевые слова:** внутренний туризм, успешные стратегии, Incredible India, Tursab, проблемы, значительный рост, постановления и указы.

## DEVELOPMENT OF DOMESTIC TOURISM IN UZBEKISTAN: OPPORTUNITIES, PROBLEMS AND PROSPECTS

**Akhmedjanova Irada Usmanovna**  
*Scientific-Research Institute for Tourism Development*  
**Khalilova Nodira Abdukhamid kizi**  
*Scientific-Research Institute for Tourism Development*

**Abstract.** This article analyzes the issues of developing domestic tourism in the Republic of Uzbekistan. Domestic tourism is considered an important tool for the country's economic growth, improving the living standards of the population, preserving and promoting cultural heritage. The article examines the current state of domestic tourism and explores its opportunities in areas such as rural tourism, trips to historical cities, and natural recreation zones.

**Keywords:** domestic tourism, successful strategies, Incredible India, Tursab, challenges, significant growth, decrees and resolutions.

### **Kirish.**

Ichki turizm – bu fuqarolarning o'z mamlakatida sayohat qilish, turistik xizmatlardan foydalanish va mahalliy hududlarda dam olishni o'z ichiga olgan keng qamrovli soha hisoblanadi. Har bir davlatda ichki turizmning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy, madaniy, ekologik va ijtimoiy salohiyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ichki turizmning ahamiyati yanada oshmoqda. Buning sababi shundaki, ichki turizm nafaqat milliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad keltiradi, balki aholining turmush darajasini yaxshilashga, ularning madaniy va tarixiy merosga bo'lgan hurmatini oshirishga, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Dunyo bo'yicha ichki turizmning o'sishi va rivojlanishi jahon iqtisodiyotida muhim o'rinn tutayotgan soha sifatida tan olinmoqda. 2023-yilda global miqyosda ichki turizmning ulushi 70-80% atrofida bo'lib, faqat ba'zi davlatlarda chet el sayohatlari ko'proq rivojlangan. Shuningdek, pandemiya davridan keyin ichki turizmga talab sezilarli darajada oshdi, chunki odamlar xavfsiz va qisqa muddatli sayohatlar uchun o'z mamlakatlarida dam olishni afzal ko'rdilar<sup>11</sup>.

Ichki turizm mamlakat iqtisodiyotining ko'plab sektorlariga ta'sir ko'rsatadi. Bu soha nafaqat turistik xizmatlarni taqdim etish, balki transport, mehmonxona biznesi, restoranlar, o'quv va madaniy markazlar kabi boshqa ko'plab sohalarda iqtisodiy faoliyotni rag'batlantiradi. Har bir sayohat qilish jarayonida odamlar mehmonxona xizmatlari, transport, ovqatlanish, ekskursiyalar va boshqa xizmatlar uchun xarajat qilishadi, bu esa milliy iqtisodiyotga qo'shimcha daromad keltiradi. Turizm sektorining o'sishi bilan birga yangi ish o'rnlari, ayniqsa, O'zbekiston uchun ichki turizmning rivojlanishi alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda turizmning barcha turlari uchun keng imkoniyatlar mavjud. Boy tarixiy meros, madaniy yodgorliklar, tabiiy go'zalliklar va mehmondo'st aholi sayohatchilarni o'ziga jalb qiladi. Misol uchun, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi qadimiy shaharlar, Chimgan va Bo'ronli tog'laridagi tabiiy manzaralar hamda Badaiyning o'ziga xos ekologik resurslari ichki turistlarni jalb qilish uchun muhim omillar hisoblanadi. Ichki turizmni rivojlantirish, ayniqsa, kam rivojlangan hududlar va qishloqlarda iqtisodiy faoliyotni oshirish, yangi turizm tarmoqlarini yaratish imkonini beradi.

Ichki turizmning iqtisodiy foydasi bilan birga, uning ijtimoiy va madaniy ta'siri ham katta. Sayohatlar, odamlarning o'zaro madaniy aloqalarini rivojlaniradi, turli mintaqalar va hududlarda yashovchi odamlar o'rtasida integratsiya jarayonini kuchaytiradi. Mahalliy aholi turizm orqali o'z tarixiy, madaniy va tabiiy boyliklarini

Shuningdek, ichki turizm madaniy merosni saqlashning samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosi mavjud bo'lib, uni targ'ib qilish va dunyo

<sup>11</sup> <https://www.unwto.org/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>

miqyosida tanitishning muhim vositasi sifatida ichki turizmni rivojlantirish mumkin. Masalan, Samarqanddagi Registon maydoni, Buxorodagi Ark qal'asi, Xivadagi Ichan-qal'a kabi obidalar faqat xorijiy turistlar uchun emas, balki o'z fuqarolarimiz uchun ham katta ahamiyatga ega. Ichki sayohatlar orqali fuqarolar o'z mamlakatining boy madaniy tarixiga chuqurroq kirib boradilar, bu esa milliy iftixorni oshiradi va mamlakatga bo'lgan muhabbatni kuchaytiradi.

Ichki turizm rivojlanishida ekologik jihatlar ham o'z o'rnini egallaydi. Hozirgi kunda turizmning ekologik izlari hamda tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish masalalari jahon miqyosida katta ahamiyatga ega. O'zbekistonning go'zal tabiiy manzalarini saqlab qolish va ekologik barqaror turizmni rivojlantirish muhim vazifalardan biridir. Tabiatni asrash, ekologik ta'sirni kamaytirish va turizmni barqaror rivojlantirish uchun maxsus dasturlar va chora-tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Misol uchun, tabiatga zarar yetkazmasdan turizmni rivojlantirish, milliy bog'lar va tabiiy rezervatlarda ekologik sayohatlarni tashkil etish, tabiatni asrash bo'yicha turistik ta'lif berish zarur.

Dunyo miqyosida ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha turli mamlakatlar muvaffaqiyatli strategiyalarni amalga oshirishmoqda. Misol uchun, Yaponianing "domestic tourism" dasturi, Hindistonning "Incredible India" kampaniyasi va Turkiyaning "Tursab" strategiyasi kabi tashabbuslar ichki turizmni rivojlantirishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Ushbu tajribalar orqali ichki turizmni rivojlantirish uchun samarali marketing kampaniyalari, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi turistik yo'nalishlarni yaratish va mahalliy brendlarni targ'ib qilish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda ichki turizm sohasining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari o'zgarib bormoqda. O'zbekiston hukumati turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda, ammo ba'zi muammolar hali ham mayjud. Masalan, turistik infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi, transport tarmog'ida muammolar, mehmonxona va turistik xizmatlar sifatining o'rtacha darajada bo'lishi, shuningdek, marketing va reklama sohasidagi kamchiliklar. Bularning barchasi ichki turizmning samarali rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, o'ziga xos tabiiy manzara va boy tarixiy obidalar mavjudligi sababli ichki turizmda katta salohiyat mavjud.

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston Respublikasida ichki turizm sezilarli o'sish ko'rsatdi<sup>12</sup>.

**Ichki sayohatlar soni:** 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida O'zbekiston bo'ylab 20 000 mingdan ortiq sayohat amalga oshirildi.

**Ichki turizmda ishtirok etganlar soni:** Ushbu davrda ichki turizmda 15 000 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi.

**Ichki turizmning o'sish sur'ati:** 2023-yilning mos davriga nisbatan ichki turizm 18% ga o'sgan.

Ushbu ko'rsatkichlar ichki turizmning yildan-yilga o'sib borayotganini ko'rsatadi. Bunda turizm infratuzilmasining rivojlanishi, madaniy meros obyektlarining restavratsiya qilinishi va turizm xizmatlarining diversifikatsiyasi muhim rol o'ynaydi.

### Adabiyotlar sharhi.

Serdyukova N.K. (2009) ning "Внутренний туризм: актуальные вопросы управления и развития" maqolasida ichki turizmni boshqarish va rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Muallif ichki turizmni mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'r'in tutuvchi soha sifatida ta'riflab, uning iqtisodiy barqarorlikka ko'rsatadigan ijobiy ta'sirini alohida ta'kidlaydi.

Yana bir rus olimi, Rusina A.N. va jamoasining "Перспективы развития внутреннего туризма в современных условиях" maqolasida ichki turizmni zamonaviy sharoitlarda rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan. Maqolada ichki turizmning iqtisodiy va ijtimoiy

<sup>12</sup> <https://uzreport.news>

ahamiyati, uning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar hamda istiqboldagi strategiyalar batafsil yoritilgan.

Xulosa qilib aytganda, mualliflar ichki turizmning zamonaviy sharoitlarda rivojlanishi uchun har tomonlama qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydilar. Ichki turizm nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki hududiy rivojlanish, ijtimoiy barqarorlik va madaniy merosni asrashga ham salmoqli hissa qo'shishi mumkin. Shu bois, ichki turizmni rivojlantirishda davlat, xususiy sektor va jamoatchilik o'rtaida samarali hamkorlikka e'tibor qaratish lozim.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur maqolada **analitik va tavsifiy metodlardan** foydalanilgan. Ya'ni, **Analitik yondashuv** - maqolada ichki turizmning hozirgi holati, iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri haqida statistik ma'lumotlar va tendensiyalar tahlil qilingan; ichki turizmni rivojlantirishga ta'sir qiluvchi infratuzilma, xizmat ko'rsatish sifati kabi muammolar chuqur tahlil qilingan. **Tavsifiy metodologiya** - ichki turizm imkoniyatlari (qishloq turizmi, tarixiy va tabiiy maskanlar) haqida batafsil tasvir berilgan; ichki turizmni rivojlantirishga doir qarorlar va davlat dasturlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

O'zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator qaror va farmonlar qabul qilingan bo'lib, ular mamlakatning turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan. Quyida ularning mazmuni keltirilgan<sup>13</sup>:

**2021-yil 9-fevraldagi 6165-sonli Prezident Farmoni:** Ushbu farmon ichki va ziyyarat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Farmon doirasida turizm mahsulotlari va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, transport yo'nalishlarini kengaytirish va turizm infratuzilmasini yaxshilash choralar ko'zda tutilgan.

**2021-yil 24-fevraldagi 100-son Qaror:** Mazkur qaror ichki va ziyyarat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Unda madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish, turizm marshrutlarini rivojlantirish va turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish masalalari ko'rib chiqilgan.

**2024-yil 7-oktabrdagi 646-sonli Qaror:** Ushbu qaror "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" ichki turizm yarmarkalarini tashkil etish va o'tkazish chora-tadbirlarini belgilaydi. Yarmarkalar orqali ichki turizmni ommalashtirish va aholini keng jalb qilish maqsad qilingan.

**2023-yil 27-iyuldagagi 238-sonli Prezident Qarori:** Mazkur qaror turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlarini o'z ichiga oladi. Unda turizm infratuzilmasini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va turistlar oqimini oshirish bo'yicha vazifalar belgilangan.

Mazkur qarorlar doirasida, turizm sohasidagi tadbirkorlar va sayohatchilar uchun turli imtiyozlar joriy etilgan bo'lib, quyida ushbu imtiyozlarning asosiy turlari keltirilgan:

- daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar;
- jismoniy shaxslar uchun imtiyozlar;
- turistik (mehmonxona) yig'imlari;
- subsidiyalar;
- tashqi reklama imtiyozları.

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator yirik loyihamlar amalga oshirilmoqda. Quyida bunday loyihalarning bir nechtasiga to'xtalib o'tamiz:

- "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi;
- "Turizm qishloqlari" loyihasi;
- "Oltin vodiylar sayyohlik halqasi" loyihasi;
- "Samarqand turistik markazi" loyihasi;
- "Ziyorat turizmi"ni rivojlantirish.

<sup>13</sup> <https://lex.uz>

Yurtimizda nafaqat xorijlik sayyoohlarni, balki mahalliy turistlarni ham jalg qila oladigan respublika miqyosida ko'plab festivallarimiz mavjud.

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida yil davomida bo'lib o'tadigam festivallar

Nº	Festival nomi	Sana	Joy
1	"Qushlar festivali"	Mart – may oylari	Surxondaryo viloyati
2	Navro'z bayrami	21-mart	Butun mamlakat bo'ylab
3	"Yashil O'zbekiston" ekologik festivali	Aprel oyi	Toshkent va boshqa yirik shaharlarda
4	"Raqs sehri" xalqaro raqs festivali	Har yili aprel oyida	Toshkent shahri
5	"Lazgi" xalqaro raqs festivali	Aprel oyining oxiri	Xiva shahri
6	Xalqaro jaz festivali	Aprel oyining oxiri — may oyining boshi	Toshkent shahri
7	"Asrlar sadosi" festivali	Har yili may oyida	Har yili turli shaharlarda
8	"Boysun bahori" folklor festivali	May oyining o'rtalari	Surxondaryo viloyati, Boysun tumani
9	Xalqaro gullar festivali	May oyining oxiri — iyun oyining boshi	Namangan shahri
10	"Ipak va ziravorlar" festivali	May oyining oxiri	Buxoro shahri
11	"Stixiya" elektron musiqa festivali	Iyun oyining boshida	Mo'ynoq shahri
12	"Do'stlik festivali"	Har yili iyul oyida	Farg'ona vodiysi (Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlari)
13	"Baxt uchqunlari" bolalar festivali	Iyul oyi	Toshkent shahri va boshqa viloyatlar
14	"Qovun festivali"	Avgust oyining o'rtalari	Xorazm viloyati
15	"Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali	Avgust oyining oxiri (har ikki yilda bir marta).	Samarqand shahri.
16	"Pepsi Music Fest"	Sentabr oyining boshida	Toshkent shahri
17	"Xalqaro kitob festivali"	Sentabr oyining oxiri	Toshkent shahri
18	"O'zbekiston hunarmandlari festivali"	Oktabr oyining boshida	Qo'qon shahri
19	"Yangi yil festivali"	Dekabr oyining oxiri — yanvar oyining boshida	Butun mamlakat bo'ylab

*Manba: Muallif tomonidan tuzilgan.*

Festivallar ichki turizmni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ular nafaqat turistik oqimni ko'paytiradi, balki mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniy merosni saqlash va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ichki turizmni rivojlantirish iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega soha sifatida alohida e'tibor talab etadi. Ushbu maqola doirasida ichki turizmning hozirgi holati, muammolar va rivojlantirish istiqbollari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ichki turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki aholining madaniy va tarixiy merosga bo'lgan hurmatini oshirish, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, ichki turizmni rivojlantirish uchun quyidagi asosiy omillarni e'tiborga olish lozim:

- **Infratuzilmani rivojlantirish:** Chekka hududlarda yo'llar, transport va mehmonxona xizmatlarini yaxshilash.
- **Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish:** Turizm xizmatlarini yuqori darajaga ko'tarish va xalqaro standartlarga moslashtirish.

- **Marketing strategiyalarini kuchaytirish:** Ichki turizmni targ'ib qilish uchun innovatsion reklama kampaniyalarini joriy etish.
- **Madaniy va ekologik turizmni rivojlantirish:** Mahalliy merosni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlash.
- **Davlat va xususiy sektor hamkorligi:** Turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilish va mahalliy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash.

Mazkur tadbirlar ichki turizm sohasidagi salohiyatni to'laqonli amalga oshirish va uning mamlakat iqtisodiyoti hamda xalqaro obro'sini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ichki turizmni rivojlantirishning doimiy qo'llab-quvvatlanishi O'zbekistonni jahon turizm xaritasida muhim o'ringa ega mamlakat sifatida ko'rsatishi mumkin.

### Xulosa va takliflar.

Ichki turizm bugungi kunda nafaqat mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi, balki ijtimoiy va madaniy rivojlanishning qudratli vositasi sifatida ham ko'rib chiqilmoqda. O'zbekiston sharoitida ichki turizmning rivojlanish imkoniyatlari, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari bo'yicha olib borilgan tahlillar ushbu sohaning keng ko'lamli salohiyatini yaqqol namoyon etdi. Quyida bu sohaning rivojlanishi bilan bog'liq xulosalar har tomonlama tahlil qilingan holda taqdim etiladi:

#### **Ichki turizmning iqtisodiy ahamiyati**

*Mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash:* ichki turizm mahalliy bizneslar, xususan, xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga daromad olib keladi.

*Ish o'rnlari yaratish:* turizm infratuzilmasining kengayishi mintaqalarda yangi ish o'rnlari paydo bo'lishiga zamin yaratadi.

*Transport va mehmonxona xizmatlari rivoji:* ichki turizmning kengayishi sababli transport, mehmonxona va restoran xizmatlariga talab oshib, bu sohalarning sifat va samaradorligi yaxshilanmoqda.

*Regional iqtisodiy tenglikni ta'minlash:* turizm rivojlanishi natijasida qishloq hududlarida investitsiyalar hajmi oshib, markaz va chekka hududlar o'rtaqidagi iqtisodiy farq qisqaradi.

#### **Madaniy va ijtimoiy jihatlar**

*Madaniy obyektlarning ahamiyati:* O'zbekistonda mavjud 8 210 ta madaniy obyektlar, jumladan, Samarqand (1 607 ta), Qashqadaryo (1 468 ta), Buxoro (829 ta) va boshqa viloyatlarda joylashgan qadimiy va tarixiy yodgorliklar mahalliy aholi va sayyohlarni jalb qiluvchi asosiy manbalardir.

*Madaniy merosni asrash:* ichki turizm orqali tarixiy va madaniy obyektlarning ahamiyati oshadi, bu esa ularni asrash va kelajak avlodga yetkazish imkonini beradi.

*Milliy birdamlikni mustahkamlash:* ichki turizm orqali aholining turli hududlardagi madaniy qadriyatlar bilan tanishuvi milliy birlikni mustahkamlaydi.

#### **Ekologik omillar**

*Ekoturizmning rivojlanishi:* O'zbekistondagi tog'li hududlar, daryolar va cho'llandshaftlari ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi.

*Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish:* turizm hududlarida ekologik muvozanatni saqlash uchun maxsus dasturlar va loyihibarlar amalga oshirilmoqda.

*Aholining ekologik ongini shakllantirish:* ichki turizm orqali mahalliy aholining tabiatni asrash bo'yicha xabardorligi oshadi.

#### **Ichki turizmni rivojlantirishdagi muammolar**

*Infratuzilma yetarli darajada rivojlanmagan:* chekka hududlarda yo'llar, mehmonxonalar va boshqa turistik infratuzilmaning kamliqi turizmning keng ommalashuviga to'sqinlik qilmoqda.

*Xizmat ko'rsatish sifati:* ba'zi hududlarda xizmat ko'rsatish madaniyati va sifatining pastligi turizmning rivojlanishini sekinlashtirmoqda.

*Axborot yetishmovchiligi:* mahalliy aholining ichki turizm imkoniyatlari va diqqatga sazovor joylar haqida ma'lumotga ega emasligi ham sohani to'laqonli rivojlantirishga halaqit beradi.

### Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar.

O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish milliy iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Turizm infratuzilmasini yaxshilash ichki turizmni rivojlantirish uchun birinchi qadam bo'lib, yo'llar, aeroportlar va vokzallarni zamonaviylashtirish, mehmonxonalar va oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish, shuningdek, turistik maskanlarda qulay sanitar-gigiyenik sharoitlar yaratish zarur. Madaniy meros obyektlaridan foydalanishni optimallashtirish maqsadida tarixiy obidalarni restavratsiya qilish, interaktiv axborot stendlari o'rnatish va maxsus mobil ilovalarni joriy qilish katta ahamiyatga ega. Ichki turizmni targ'ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarda reklama kampaniyalari, "O'z yurtimni kashf etaman" kabi milliy dasturlar tashkil etish va hududiy turistik xaritalar taqdim etish foydali bo'ladi.

Ichki turizmni yanada jozibador qilish uchun yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish zarur. Ekoturizmni rivojlantirish uchun milliy bog'lar va qo'riqxonalarni ommalashtirish, qishloq turizmi uchun an'anaviy qishloq hayotini aks ettiruvchi dasturlarni tashkil qilish va sog'lomlashtirish turizmi doirasida sanatoriylar va shifobaxsh suv manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish kerak. Sayyoohlar uchun avia va temir yo'l chiptalariga chegirmalar, talabalar va oila a'zolari uchun maxsus turistik paketlar va mavsumiy aksiyalar orqali ichki turizmni rag'batlantirish mumkin.

Chekka hududlarni rivojlantirish orqali hududiy turizmni kuchaytirish muhim bo'lib, bu maqsadda har bir viloyatda festivallar va tadbirlarni tashkil etish, tarixiy va madaniy maskanlarga maxsus marshrutlar ishlab chiqish talab etiladi. Innovatsion texnologiyalarni turizm sohasiga keng joriy qilish orqali mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish, virtual reallik yordamida madaniy obidalarni namoyish qilish va elektron turizm xizmatlarini rivojlantirish zarur. Sayyoohlar xavfsizligini ta'minlash uchun transport infratuzilmasi xavfsizligini oshirish, tabiiy ofatlarga qarshi tezkor yordam xizmatlarini tashkil etish va turistik maskanlarda xavfsizlik xizmatlarini kuchaytirish kerak.

Ichki turizmni rivojlantirish uchun malakali kadrlar tayyorlash va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish ham dolzARB. Bu maqsadda turizm sohasi bo'yicha o'quv dasturlarini joriy qilish, xalqaro tajribani o'rganish va turizm sohasida ishlaydigan kadrlarni qayta tayyorlash talab etiladi. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilarni boshqarish tizimini rivojlantirish va barqaror turizmni ommalashtirish ichki turizmni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mahalliy aholining turizm sohasiga jalg qilinishi ham muhim, chunki bu qishloq joylarida oilaviy mehmonxonalar tashkil etish, turizm xizmatlarini ko'rsatish va hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi.

Ichki turizmni rivojlantirish doirasida yangi festivallarni tashkil etish orqali turistik maskanlarga qiziqishni oshirish mumkin. Milliy taomlar va hunarmandchilik mahsulotlarini targ'ib qilish uchun gastronomik festivallarni yo'lga qo'yish, hududiy an'analar va sport tadbirlariga asoslangan festivallarni rivojlantirish katta samara beradi. Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha barcha sa'y-harakatlar davlat, xususiy sektor va mahalliy jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni talab qiladi. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekiston ichki turizmi yangi bosqichga chiqib, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishda muhim o'rIN egallaydi.

Ichki turizm O'zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasida muhim o'rIN egallaydi. Bu sohaning rivojlanishi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki milliy madaniyatni saqlash, aholi turmush darajasini yaxshilash va mamlakatning xalqaro obro'sini oshirishga ham xizmat qiladi. Hukumat tomonidan ko'rilib yozgan chora-tadbirlar, jumladan, "Turizm-2026" dasturining amalga oshirilishi ichki turizmni yanada rivojlantirish va uning salohiyatidan to'laqonli foydalanishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, ichki turizmning ahamiyati uning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Bu sohaning to'g'ri boshqarilishi mamlakatning umumiy rivojlanishiga ulkan hissa qo'shadi va uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Shu sababli, ichki turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish har bir fuqaro va davlat idoralari uchun ustuvor vazifa bo'lishi kerak.

***Adabiyotlar/Literatura/Reference:***

*Farmon (2021) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.02.2021 yildagi PF-6165-son.*

*Qaror (2023) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 27.07.2023 yildagi PQ-238-son.*

*Qaror (2024) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.10.2024 yildagi 646-son.*

*Постановление (2021) Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан, от 24.02.2021 г. № 100.*

*Русина А. Н. и др. (2021) Перспективы развития внутреннего туризма в современных условиях //Экономика, предпринимательство и право.– Т. 11. – №. 10. – С. 2343-2356.*

*Сердюкова Н. К. (2009) Внутренний туризм: актуальные вопросы управления и развития //Terra Economicus. – Т. 7. – №. 3-3. – С. 144-146.*

<https://www.unwto.org/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>

<https://uzreport.news>

<https://stat.uz/uz/>